Insonlarda zamburug'lar sababli yuzaga keladigan yuqumli kasalliklar umumiy holda "mikozlar" deb ataladi. Mikozlarning etiologiyasi, patogenezi va klinik ko'rinishlari nihoyatda xilma-xildir. Insoniyat zamburug'li infeksiyalar — mikozlar bilan qadim zamonlardan oq tanish bo'lgan. So'or (kandidiaz) qadimgi davrda Gippokrat va Galen tomonidan tasvirlangan. Tashqi eshituv yo'lining terisining zamburug'li zararlanishi bo'yicha dastlabki kuzatuvlar XIX asr o'rtalarida qayd etilgan bo'lib, birinchi holat 1844-yilda N.V. Mauer tomonidan adabiyotda bayon qilingan. Ko'p o'tmay boshqa tadqiqotchilar tomonidan ham otomikozga oid klinik kuzatuvlar e'lon qilindi (Pacini, 1851; Cramer A, 1859; Bezold F., 1870). Barcha kuzatuvlarda otomikoz qo'zg'atuvchilari *Aspergillus* jinsiga mansub zamburug'lar bo'lib, bu tashqi eshituv yo'lining mikotik zararlanishi edi. Ushbu kasallikning yanada batafsil tavsifi R.R. Vreden (1867) ishida keltirilgan bo'lib, u bu kasallikni "*Aspergillus miringomikoz*" deb atagan. O'rta quloqning operatsiyadan keyingi bo'shlig'ining zamburug'li infeksiyasi haqida birinchi ma'lumot Cavadas (1930) ga tegishli. Quloqning operatsiyadan keyingi mukoroz kasalligi Lev N.A. (1966) tomonidan tasvirlangan. Ushbu muallif o'rta quloqning operatsiyadan keyingi bo'shlig'idagi zamburug'li infeksiyaning eng to'liq tavsifini bergan. [1,2].

So'nggi yillarda adabiyotlarda shunday ma'lumotlar uchramoqdaki, sanatsiya va eshitishni yaxshilash operatsiyalaridan keyin bemorlarda quloqdan uzoq davom etuvchi yiring ajralishi, operatsiyadan keyingi bo'shliqning yomon bitishi hamda plastik qopqoqning namlanib turishi kuzatiladi, bu esa turli xil mog'or va xamirturushsimon zamburug'lar sababli yuzaga keladi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida deyarli barcha asosiy inson mikozlari va ularning qo'zg'atuvchilari tasvirlab berilgan. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 1995-yilga kelib dunyo aholisining 20 foizi turli lokalizatsiyadagi mikozlardan aziyat chekkan, XXI asr boshlariga kelib esa bu ko'rsatkich ayrim ma'lumotlarga ko'ra ikki baravarga oshgan. [3,4].

Nafas yo'llari kasalliklari eng keng tarqalgan kasalliklar qatoriga kiradi — o'rtacha hisobda aholining 75% gacha qismi ushbu kasalliklardan aziyat chekadi. Bu kasalliklarni to'g'ri diagnostika qilish, oqilona davolash va samarali profilaktika qilish muammosi hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu masala turli sohalar mutaxassislarini — otorinolaringologlardan tortib jamoat salomatligi bilan shug'ullanuvchi mutaxassislargacha — qamrab oladi. Uni hal etishda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayon molekulyar biologiyadan tortib gigiyena va sanitariya sohalarigacha bo'lgan bilimlar integratsiyasini talab etadi.

Otomikoz (zamburug'li tashqi otit) odatda tashqi eshituv yo'lining zamburug'li infeksiyasi sifatida tavsiflanadi, ba'zan esa kam hollarda o'rta quloqqa ham asorat berishi mumkin. U hayot uchun xavfli bo'lmasa-da, bemorlar va otorinolaringologlar uchun murakkab va bezovta qiluvchi kasallik hisoblanadi, chunki ko'pincha uzoq muddatli davolash va kuzatuvni talab qiladi. Shunga qaramay, kasallik qaytalanishi ham mumkin. [5, 6]

Otomikoz umumiy LOR amaliyotida tez-tez uchraydigan kasalliklardan biri bo'lib, tashqi otit belgilari bilan murojaat qilgan bemorlar orasida uning tarqalishi 9% dan 27,2% gacha, quloqdan ajralma (yiring) kelayotgan bemorlarda esa 30% gacha yetishi mumkin. Bu kasallik butun dunyoda uchraydi, ammo ayniqsa issiq, nam va changli tropik hamda subtropik hududlarda ko'proq kuzatiladi.

Andrall va Gaverret quloqning zamburug'li infeksiyalarini birinchi bo'lib tasvirlab berganlar. Otomikoz — tashqi quloq yo'lining yuzaki zamburug'li infeksiyasidir. Infeksiya subakut yoki o'tkir bo'lishi mumkin va yallig'lanish, qichishish, po'st tashlash hamda kuchli noqulaylik bilan xarakterlanadi. Mikoz natijasida yallig'lanish, yuzaki epiteliy ajralishi, gifalar saqlovchi chiqindilar to'planishi, yiringlash va og'riq yuzaga keladi. [7,8.]

Zamburug'lar kasallikning asosiy qo'zg'atuvchisi bo'lishi yoki bakterial infeksiyaga qo'shimcha tarzda rivojlanishi mumkin. Otomikozning dastlabki bosqichida bemorlar ko'pincha kuchli qichishishdan shikoyat qiladilar, keyinchalik bu og'riq, eshitishning pasayishi va hatto nog'ora pardaning teshilishiga olib kelishi mumkin. [9]

Otomikoz yetarli bo'lmagan yoki noto'g'ri gigiyena amaliyotlari tufayli yuzaga kelishi mumkin. Quloq kanalini paxta tayoqchasi yoki barmoq bilan tozalash ko'pincha teri va shilliq

pardalarda mikrojarohatlar paydo bo'lishiga olib keladi, bu esa zamburug'li infeksiyalar uchun kirish eshigi vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, quloq mumini to'liq olib tashlash quloqni uning tabiiy himoya to'sig'idan mahrum qiladi. Antifungal va antiseptik xususiyatlarga ega bo'lishi, shuningdek, quloq mumining optimal namlik va haroratni saqlashdagi roli disbiyoz rivojlanishining oldini oladi. [10]

Otomikoz kattalarga nisbatan bolalarda ko'proq uchraydi. Chaqaloqlar va maktabgacha yoshdagi bolalar zamburug'li infeksiyalarga ayniqsa moyil bo'ladi.

Klassifikatsiya

Kasalliklarning Xalqaro klassifikatsiyasida (KKX) otomikoz bir nechta bo'lim ostida keltirilgan. Yallig'lanish joylashuviga qarab unga turli kodlar beriladi:

- H 60.8 – surunkali tashqi zamburug'li otit;
- H 66.8 – boshqa surunkali o'rta otit;
- B 37.8 – boshqa joylardagi yuzaki kandidiaz;
- B 44.8 – aspergillezning boshqa turlari;
- H 62.2 – BDU mikozi bog'liq tashqi otit.

Shuningdek, mahalliy tasnif ham mavjud bo'lib, unga tashqi va o'rta zamburug'li otit, zamburug'li miringit va postoperativ bo'shliq mikozlari kiradi.

Hindistonning qirg'oq shahrida o'tkazilgan tadqiqotda Aspergillus turlari eng ko'p uchragan zamburug'lar bo'lib chiqdi. Ulardan keyin Penicillium aniqlangan bo'lib, bu boshqa tadqiqotlarda kam uchraydi. Chrysosporium ning aniqlanishi esa avtomikozda birinchi marta qayd etilgan holat hisoblanadi.

Otomikoz bilan kasallangan quloqlarda sog'lom quloqlarga nisbatan bakterial infeksiyalar ko'proq uchraydi. Shu bilan birga, sog'lom tashqi eshituv yo'llarida ham sezilarli miqdorda zamburug'lar aniqlanadi va ularning turlari avtomikoz holatlaridagi zamburug'lar bilan o'xshashlik ko'rsatadi.

Shuning uchun “birlamchi” va “ikkilamchi” otomikoz atamalaridan foydalanish kasallikni standartlashtirilgan tarzda tasniflash va ilmiy hisobotlarni bir xillashtirish uchun muhim hisoblanadi.

Etiologiyasi

Eng ko'p uchraydigan qo'zg'atuvchilar — Aspergillus niger va Candida albicans, ammo boshqa ko'plab zamburug' turlari ham otomikozni keltirib chiqarishi mumkin

Eng ko'p uchragan qo'zg'atuvchilar Aspergillus turlari bo'lib, 80% holatni tashkil etdi. Ular ichida A. niger kompleksi — 38% (eng ko'p), A. fumigatus kompleksi — 27%, A. flavus kompleksi — 15%. Boshqa aniqlangan zamburug'lar: Penicillium turlari — 8%, Candida albicans — 4%, Rhizopus spp. — 1%, Chrysosporium spp. — 1%. [2, 5, 10].

Keltirib chiqaruvchi mezonlari.

Antifungal preparatlarni (AF) qo'llash masalasi amaliyot uchun juda dolzarb bo'lib, u bir qator muhim omillarga bog'liq.

So'nggi o'n yilliklarda yuqori nafas yo'llarining yallig'lanish kasalliklari bilan og'rigan bemorlarni davolash samaradorligi har doim ham bemorlar va shifokorlarni qoniqtirmaydi.

Zamburug'larga qarshi ko'plab dori vositalari mavjud bo'lib, ularni to'g'ri tanlash uchun shifokor preparatning xususiyatlarini aniq bilishi kerak. Dori vositasining farmakodinamikasi, nojo'ya ta'sirlari va qo'llash xususiyatlarini hisobga olgan holda davolash samarali bo'ladi. Shuningdek, terapevtik dozani to'g'ri belgilash va davolash kursini aniq hisoblash muhim ahamiyatga ega.

O'rta quloqning zamburug'li kasalliklarida dori tanlash otorinolaringolog uchun muhim vazifalardan biridir. Bunda bakteriologik tekshiruv natijalari, o'rta quloq holati, kasallikning og'irligi, asoratlarning xarakteri va bemorning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Muhim omillardan yana biri — antimikrob preparatni qo'llash usulidir. Mamlakatimizda an'anaviy usullardan biri antibiotiklarni parenteral (inyeksiya orqali) yuborish hisoblanadi. Biroq o'rta quloq kasalliklarida bu usul har doim ham o'zini oqlamaydi, chunki bemor uchun davolash rejimiga rioya qilish qiyin bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, inyeksiyadan keyingi asoratlar yuzaga kelishi ehtimoli ham mavjud bo'lib, bu davolash xarajatlarining oshishiga olib keladi.

Zamonaviy, kamroq qo'llash chastotasiga ega bo'lgan dori vositalarini tanlash davolash xarajatlarini kamaytiradi va bemor uchun qulaylik yaratadi.

O'rta quloqning yallig'lanish kasalliklarini davolashda, ayniqsa yangi avlod antibiotiklarini tizimli qo'llash natijasida nog'ora bo'shlig'idagi mikroflora o'zgaradi. Bu esa mahalliy immunitetning pasayishiga olib kelib, o'z navbatida o'rta quloqning zamburug'li kasalliklari rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Otomikoz rivojlanishiga olib keluvchi asosiy omillar quyidagilardan nam va issiq iqlim, quloq kiri (serumen) mavjudligi, quloqqa asboblardan aralashuv (tozalash, kovlash), suzish (hovuzlar) immunitetning pasayganligi, issiq mavsumda changli muhitda ishlash, mahalliy antibiotik yoki steroid tomchilarni ko'p qo'llash.

Surunkali o'rta otit kasalligi va otomikoz birga kelishi: ayniqsa quloqdan uzoq vaqt yiring ajralib turadigan bemorlarda uchraydi, quloq tomchilari (antibiotiklar) uzoq qo'llanganda tez-tez rivojlanadi, operatsiyadan keyingi quloq bo'shliqlarida ham ko'p kuzatiladi.

Asosiy sabablar: doimiy namlik, quloq ichida yiring va detritlar, antibiotiklar ta'sirida normal flora buzilishi, tashqi eshituv yo'li himoya mexanizmining pasayishi

Quyidagi holatlar ikkilamchi otomikoz sifatida baholanib, tadqiqotdan chiqarildi:

1. Surunkali o'rta otit, faol otit, nog'ora parda teshilishi, oldingi quloq operatsiyalari yoki muolajalari mavjud bo'lgan bemorlar, shuningdek qandli diabet bilan og'riganlar;

2. O'smalar, sil va boshqa surunkali granulomatoz kasalliklar kabi og'ir umumiy kasalliklarga ega bemorlar;

3. Immuniteti pasaygan bemorlar va organizmning boshqa joylarida zamburug'li kasalliklar mavjudligi gumon qilingan shaxslar.

4. Organizmning boshqa joylarida zamburug'li infeksiyalar (masalan, tirnoqlarning zamburug'li zararlanishi — onixomikoz yoki ayollarda takrorlanuvchi vaginal infeksiyalar) mavjudligini aniqlash orqali ikkilamchi otomikoz ehtimoli istisno qilinadi. Bemorlarning tirnoqlari onixomikoz belgilariga tekshiriladi.

Klinik ko'rinish

Otomikozning birinchi belgilariga ko'pincha quloqda qichish va yengil tiqilish kiradi. Teri qichishini qirib yuborish hamda quloqdagi mum tiqilmasini o'zingiz olib tashlashga urinishlar zamburug'li infektsiyaning yanada chuqurroq kirib borishiga va kuchli yallig'lanish jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Bu jarayon tashqi quloqning qizarishi va shishishi, shuningdek och sariqdan jigarrang yoki qora ranggacha bo'lgan turli xil oqindi paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ular quloq kanalini to'sib qo'yadi, natijada eshitish qobiliyati pasayadi va begona shovqinlar hissi paydo bo'ladi. Tashqi zamburug'li otit shuningdek yutilganda kuchayadigan kuchli og'riq va mintaqaviy limfa tugunlarining kattalashuvi bilan kechadi. [1, 5].

Immuniteti zaiflashgan shaxslarda, masalan, qandli diabet bilan og'riganlarda, zamburug'li infektsiya davolanmasa, quloq pardasi va o'rta quloq bo'shlig'iga ham tarqaladi. Bunday hollarda otomikoz alomatlari yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Eshitish qobiliyati yomonlashadi, bosh og'rig'i va bosh aylanishi paydo bo'ladi. Asoratlarga yallig'langan quloq pardasining teshilishi va granulyatsiyalar hosil bo'lishi kiradi.



1-rasm otomikoz tashxisi bilan og'rigan bemorda Aspergillus zamburug'ining tashqi eshituv yo'lida joylashganligining endoskopik ko'rinishi

Operatsiya qilingan bo'shliqning zamburug'li infeksiyasi mastoid havo hujayralari olib tashlangach (mastoidektomiya) yoki kamroq hollarda timpanoplastika asorati sifatida rivojlanadi. Yallig'lanish jarayoni tashqi va o'rta quloq infeksiyalaridagi kabi belgilar bilan kechadi: tashqi quloq qizarishi, shishishi va quloq kanalidan yiring oqishi. Shuningdek, u kuchli og'riq bilan tavsiflanadi; biroq bemor bu og'riqqa uzoq vaqt e'tibor bermasligi va uni tiklanish davrining tabiiy qismi deb hisoblashi mumkin.

Asoratlari

Zamburug'li o'rta otit odatda surunkali va takrorlanuvchi shaklga o'tadi. Kasallikning tez-tez avj olishi chandiqlanish va yopishishlar, shuningdek, progressiv eshitish qobiliyatining pasayishi bilan kechadi.

Otofunkosizning noqulay rivojlanishi hollarda infeksiya ichki a'zolarga tarqaladi va umumiy yallig'lanish – zamburug'li sepsisni keltirib chiqarishi mumkin.

Bemorlarda qichishish, og'riq, quloq bitib qolgandek his qilish va quloqdan ajralma kelishi, quloq shang'illashi (tinnitus), eshitishning pasayishi kabi simptomlar va otoskopiya gifalar/sporalar to'plami yoki tvorogsimon kulrang/oq ajralma aniqlanishi kabi klinik belgilar qayd etiladi. Shuningdek, quloqni tozalash maqsadida yog'och cho'plar, metall vositalar yoki boshqa buyumlardan foydalanish, quloqqa yog' tomizish, mahalliy antibiotikli tomchilar va boshqa preparatlarni qo'llash bilan bog'liq.

Surunkali o'rta otit kasalligi va otomikoz birga kelishidagi o'ziga xosligi

Surunkali o'rta otitda o'rta quloqdan yiring tashqariga oqadi (otoreya), tashqi eshituv yo'li doim nam bo'lib qoladi, bu muhitda esa Aspergillus va Candida tez o'sadi. Natijada bakterial infeksiyaga **zamburug'li superinfeksiya qo'shiladi**.

Klinik kechishi: Surunkali o'rta otit bilan otomikoz birga kelgan odatda og'irroq kechadi.

Belgilar: kuchli qichishish (eng muhim simptom), quloqdan suyuqlik + zamburug' massasi, yoqimsiz hid, eshitishning yanada pasayishi, og'riq (ba'zan kuchli).

Ko'rinishi: oq, kulrang yoki qora rangli "mog'or"simon massa, quloq yo'li to'lib qolishi, terining shishishi va yallig'lanishini ko'rishimiz mumkin.

Tekshirish usullari

Otorinolararingolog otomikozni tashxislash va davolash uchun mas'uldir. Tashxis qo'yish uchun bir qator laborator va klinik tekshiruvlar o'tkazilishi, eshitish a'zolarining funksiyasi baholanishi va kasallik keltirib chiqaruvchi agenti aniqlanishi kerak.

Bemorning alomatlarini, birinchi belgilar paydo bo'lganidan beri o'tgan vaqtni va har qanday moyillik omillari mavjudligini aniqlagach, shifokor jismoniy tekshiruvga o'tadi. Otomikoz holatlarida tashqi quloq ko'rinishi baholanadi. Turli rang va konsistensiyadagi oqindi, shishish hamda ta'sirlangan hudud terisining qizarishi zamburug'li infeksiyani gumon qilishga asos bo'lishi mumkin. Otoskopiya esa quloq kanali torayishi yoki tiqilishi, shuningdek, quloq pardasining yallig'lanishini aniqlashga yordam beradi.

Klinik ko'rsatmalarga ko'ra, otomikozni faqat laboratoriya testlari orqali tasdiqlash va aniq patogenni aniqlash mumkin. Otorinolararingologik proba yoki Volkmann qoshiq yordamida quloqdan tampon olinadi va yig'ilgan biologik material maxsus oziqlantiruvchi muhitlarda kultivatsiya qilinadi. Namunaning mikroskopik tekshiruvi ham majburiy hisoblanadi.

Otomikozni tashxislashning muhim qismi qonda turli zamburug' infeksiyalariga qarshi spesifik immunoglobulinlarni aniqlash hamda teri epiteliya hujayralari qirqmasida patogenning genetik materialini aniqlashdan iborat. Yallig'lanish belgilarini hamda boshqa yotgan kasalliklarni aniqlash maqsadida umumiy va biokimyoviy qon tahlillari o'tkaziladi, shuningdek bemor sifilis, OIV va gepatit bo'yicha tekshiruvdan o'tkaziladi.

1. Klinik (asosiy) tekshiruvlar

- Otoskopiya - Oddiy yoki mikrootoskop yordamida tashqi eshituv yo'lida oq, qora, kulrang "mog'or" massa, tashqi eshituv yo'li shish, qizarish detritlar ko'rinadi

- Mikrootoskopiya Binokulyar mikroskop ostida quloqni ko'rish "gold standard klinik ko'rik" bunda zamburug' massani bevosita ko'rsatadi, tozalash (debridement) bilan birga bajariladi, mayda detritlar va gifalarni aniq ko'rsatadi, tez natija beradi (laboratoriya kutish shart emas).

Otomikoz bilan og'rigan bemorlarda tashqi eshituv yo'lidan material steril Jobson-Horne zondi (halqali kyuretkasi va paxta tutqichi bilan) yordamida qirib olindi. Boshqa hollarda esa namunalar uchta steril paxtali tampon yordamida olinib, yarim soat ichida laboratoriyaga mikologik va bakteriologik tekshiruv uchun yetkazildi.

2. Mikrobiologik tekshiruvlar (asosiy laboratoriya)

- Kultura (ekish usuli). Sabouraud agar muhitida o'stirish zamburug'lar (fungi) uchun maxsus tayyorlangan "oziqa muhit" bo'lib bakteriyalar o'sishini cheklovchi sharoitga ega hisoblanadi. Sabouraud agar tarkibi odatda quyidagilardan iborat: Glyukoza (yoki dekstroza) zamburug'lar uchun asosiy oziqa, Pepton oqsil manbai, Agar qattiq muhit hosil qiladi, bunda oziqa muhiti $pH \approx 5.6$ (kislotali), harorat: **25–30°C** (ba'zan 37°C)da bo'ladi. Tekshiruv natijasi 3–7 kun ichida chiqadi

- Direkt mikroskopiya bu usul juda muhim tezkor (5-7 daqiqa) diagnostika hisoblanadi.

Quloqdan material olinadi (detrit, ajralma), unga kimyoviy eritma qo'shiladi: odatda **KOH (kaliy gidroksid)** ba'zan Xlorolaktifenol so'ngra Yupqa qatlam qilib slaydga qo'yiladi va mikroskop ostida tekshiriladi

- **Gram bo'yash** — bu mikroorganizmlarni (asosan bakteriyalarni) **ularning hujayra devori tuzilishiga qarab rang bilan ajratish** usuli hisoblanadi. Bu usul asosan gram manfiy va gram musbat bacterial aralash infeksiyani aniqlashda yordam beradi. Shu bilan bir qatorda Candida zamburug'ining Gram-musbat oval hujayralari va "budding" (ko'payish) ko'rinadi.

3. Zamonaviy molekulyar usullar

- PCR (Polymerase Chain Reaction) Oddiy mikroskopiya yoki kultura usullari har doim ham yetarli bo'lmaydi. PCR esa zamburug' DNKsini to'g'ridan-to'g'ri aniqlaydi, juda kichik miqdordagi patogenni ham topa oladi va zamburug'larni aniq turini ajratib beradi. Bundan tashqari aralash infeksiyalarni ya'ni zamburug va bakteriya patogenlarini bir vaqtning o'zida bor yoki yo'qligini aniqlashi mumkin.

- **Real-time PCR (qPCR)** — bu Polymerase Chain Reaction ning takomillashgan turi bo'lib, DNK ko'payishini **real vaqt rejimida kuzatish va miqdorini aniqlash** imkonini beradi. Ushbu tekshiruv usuli zamburug' yuklamasini (fungal load) o'lchaydi. Real-time PCR multiplex formatda: Bir nechta zamburug' va hatto bakteriyalarni bir vaqtning o'zida aniqlaydi

4. Gistologik tekshiruvlar

- Biopsiya (kam hollarda) Otomikozda biopsiya **qo'llanilmaydi**, chunki ko'pchilik hollarda oddiy ko'rik va laborator tekshiruvlar yetarli bo'ladi. Ammo murakkab yoki shubhali vaziyatlarda u **aniq tashxis qo'yish va to'g'ri davolashni tanlashda muhim qo'shimcha usul** hisoblanadi.

Quyidagi testlar eshitish qobiliyatining pasayishini aniqlash va eshitish nuqsonining darajasini aniqlashga yordam beradi: Tonal bo'sag'a va usti bo'sag'a audiometriya; impedansometriya; kamerton audiometriyasi; eshituv naychasi o'tkazuvchanligini baholash; otoakustik emissiyalar; timpanometriya.

5. Eshitish funksiyasi tekshiruvlari

- Audiometriya Audiometriya otomikozni to'g'ridan-to'g'ri aniqlamaydi, lekin u **eshitish funksiyasini baholab, kasallikning ta'sirini aniqlash va boshqa patologiyalarni inkor etishda muhim yordamchi usul** hisoblanadi. Zamburug' massalari yoki yallig'lanish tufayli quloq yo'li torayadi va tovush o'tishi qiyinlashadi. Bu **konduktiv tipdagi eshitish pasayishini** ko'rsatadi. Eshitish qanchalik pasayganiga qarab jarayonning darajada ekanligi bilib olinadi.

Agar audiometriyada sensorinevral eshitish yo'qolishi aniqlansa, bu faqat otomikoz emas, balki ichki quloq patologiyalariga shubha uyg'otadi. Davolashdan oldin va keyin o'tkazilib, eshitish tiklanishini baholaydi.

- Timpanometriya o'rta quloq va quloq pardasi (timpanik membrana) holatini baholovchi tekshiruv bo'lib, otomikozda asosan yordamchi diagnostik usul hisoblanadi. Buning asosiy ahamiyati shundaki, otomikoz ko'proq tashqi quloq yo'lini zararlaydi, lekin timpanometriya quyidagi jihatlarni aniqlashga yordam beradi:

1 Quloq pardasining holatini baholash: Agar yallig'lanish yoki zamburug' massalari ta'sirida parda harakatchanligi o'zgargan bo'lsa, bu timpanogrammada aks etadi.

2 O'rta quloqni tekshirish: Timpanometriya orqali o'rta quloqda suyuqlik yoki bosim o'zgarishi bor-yo'qligi aniqlanadi.

3 Differensial diagnostika: Otomikozni o'rta quloq otitidan ajratish muhim hisoblanadi. Otomikozda odatda timpanogramma normal (A turi) bo'ladi.

4 Asoratlarni aniqlash: Agar infeksiya chuqur tarqalib, o'rta quloqqa o'tsa, timpanometriyada patologik o'zgarishlar (B yoki C tip) kuzatiladi.

Barcha bemorlarda immunitet pasaygan holatlarni istisno qilish maqsadida umumiy qon va siydik tahlillari, OIV infeksiyasini aniqlash uchun ELISA tekshiruvi hamda qandli diabetni aniqlash uchun qon shakar miqdori (och qoringa olingan qonda glyukoza miqdori 100 mg/dl dan yuqori bo'lsa) o'lchandi.

Davolash

To'liq tuzalguncha bemor suzish havzalari, hammomlar, saunalar va ochiq suvda suzishdan tiyilishi kerak. Ko'p hollarda otomikozni davolash mahalliy zamburug'ga qarshi vositalarni qo'llash bilan cheklanadi. Ular laboratoriya tahlillari natijalari asosida buyuriladi.

Quloq gigienasiga puxta rioya qilish zarur. Quloq kanali, mastoid jarrohlikdan keyingi bo'shlig'i va o'rta quloq eksfoliyatsiyalangan teri hujayralari, oqindi, quloq mumlari va zamburug' gifalari tozalab olinadi. So'ng ular antifungal vositalarning eritmalari bilan muntazam yuvib turiladi. Kasallikning tashqi shaklida otomikoz uchun mahalliy kompresslar, malhamlar va quloq tomchilari qo'llaniladi.

Zamburug'ga qarshi dorilarni tizimli qo'llash ko'rsatmalari qatoriga patologik jarayonning relapslari va surunkali kechishi, mahalliy davolashga javob bermaslik hamda boshqa joyda zamburug'li infeksiya mavjudligi kiradi.

Bapcha bemorlarga quloq mikrofloorasini normallashtirish va immunitetni saqlashga qaratilgan umumiy tiklovchi terapiya ham talab etiladi.

Davolash 3 asosiy bosqichda olib boriladi.

1-bosqich: Tozalash bosqichi bo'lib, tashqi eshituv yo'lini mikroskop yoki endoskopik otoskopiya ostida barcha chiqindilardan to'liq tozalanishi zarur, Amaliyotda quloqni yuvish (syringing) tavsiya etilmaydi, balki chiqindilarni so'rib olish (suction) orqali tozalash afzal hisoblanadi. Bunda detrit, zamburug' massasi, bacterial infeksiya (Surunkali o'rta otit) qo'shilib kelgan hollarda yiringli massalarini olib tashlash

2-bosqich: Etiologik davolash. Zamburug'larga qarshi tomchilar (fungitsid tomchilar) eng ko'p qo'llaniladigan davolash usuli hisoblanadi. Clotrimazole bakteriyalarga qarshi ham ta'sir ko'rsatadi, bu esa aralash (bakterial va zamburug'li) infeksiyalarni davolashda qo'shimcha afzallik beradi. Clotrimazole 1–2 hafta mahalliy tomchi yoki malhamdan foydalaniladi. Shuningdek, Ketoconazole yoki Fluconazole saqlovchi krem va malhamlar ham qo'llanishi mumkin. Tolnaftate (odatda "sportchi oyog'i"ni davolash uchun retseptsiz mavjud) Candida infeksiyalariga qarshi samarali vosita hisoblanadi. Nystatin ham Candida'ga qarshi foydali dori bo'lib, uning asosiy afzalligi — butun teri orqali so'rilmasligidir. Nystatin maxsus quloq tomchisi shaklida mavjud emas, ammo eritma yoki suspenziya ko'rinishida tayyorlanib, otomikozni davolashda qo'llanishi mumkin. Agar bakterial komponent ustun bo'lsa Pseudomonas aeruginosa va Staphylococcus aureusga qarshi mahalliy antibiotik tomchilar (Ftorxinolonlar ko'p ishlatiladi), kerak bo'lsa tizimli antibiotik preparatlar ham qo'llaniladi.

3-bosqich: Qo'llab-quvvatlovchi choralar:

Quloqni quruq saqlash

Quloqqa suv tushirmaslik

Antibiotik tomchilarni nazoratsiz ishlatmaslik

Qandli diabetni nazorat qilish

Quloqni kovlamaslik (jaroxatni oldini olish)

Hayvonlarda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, zamburug'li infeksiyalar ichki quloqqa tarqalib, Organ of Corti ga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shuningdek, mikotoksinlar orqali bilvosita zarar ehtimoli ham inkor etilmaydi.

Kam uchraydigan, davolashga chidamli holatlarda (ayniqsa HIV yoki boshqa immunitet pasaygan bemorlarda), yoki hayot uchun xavfli vaziyatlarda vena orqali yuboriladigan antifungal dorilar, masalan Amphotericin B yoki tolinaftate qo'llanishi mumkin. [1, 5, 6, 9,10].

Surunkali o'rta quloqning zamburug'li kasalliklarida an'anaviy davolashni baholash

Surunkali zamburug'li o'rta otitda bemorlarda yallig'lanish jarayonlarining darajasi va davolash samaradorligi maxsus klinik shkalalar hamda analog baholash usullari yordamida o'rganildi. Davolash samaradorligini aniqlash maqsadida an'anaviy kompleks terapiya sxemasi qo'llanildi.

Kompleks davolash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- №15 parhez;
- vazokonstriktor (burun tomchilari): galazolin, naftizin, sanorin;
- infeksiyaga qarshi kurash asosiy yo'nalish bo'lib, shu maqsadda keng ta'sir doirasiga ega zamburug'larga qarshi preparatlar (nistatin, klotrimazol va boshqalar) qo'llanildi;
- immun tizimini qo'llab-quvvatlash uchun immunomodulyatorlar;
- og'riq qoldiruvchi va isitma tushiruvchi vositalar (aspirin, paratsetamol va boshqalar);
- antigistamin preparatlar (difenhidramin, tavegil, suprastin) kuniga 1–2 marta;
- tashqi eshituv yo'lini yuvish: furatsilin eritmasi (1:5000) bilan;
- fizioterapiya muolajalari (UHF va boshqalar) kuniga 1 marta, jami 5–8 marotaba;
- modda almashinuvini yaxshilash uchun B guruhi vitaminlari va askorbin kislotasi.

Ushbu kompleks yondashuv yallig'lanish jarayonini kamaytirish, infeksiyani bartaraf etish va bemorning umumiy holatini yaxshilashga qaratilgan. [6, 8, 9].

XULOSALAR

O'tkir zamburug'li o'rta otit bilan og'rikan bemorlarda kasallikning quyidagi xos belgilari kuzatildi: yallig'lanish jarayoni, o'rta quloqda yallig'lanish-yiringli eksudatning ortiqcha to'planishi, turli darajadagi og'ir klinik simptomlarning namoyon bo'lishi, shilliq qavatning o'zgarishi va yallig'lanishi, shuningdek o'rta quloqning drenaj funksiyasining buzilishi.

Surunkali zamburug'li o'rta otit bilan og'rikan bemorlarda davolash kompleksiga teknaol va otozol preparatlari asosidagi ratsional antimikotik terapiya hamda lazer terapiyasini kiritish yallig'lanish sindromi va klinik simptomlarni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu usul umumiy yallig'lanishga qarshi va zamburug'larga qarshi ta'sir ko'rsatishi, shuningdek organizmning kompensator funksiyalarini rag'batlantirishi isbotlangan.

Zamburug'li otit fonida kuzatiladigan yallig'lanish sindromida lazer terapiyasi hamda teknaol qo'llanilishi patogenetik jihatdan asoslangan bo'lib, kompleks davolash samaradorligini oshiradi va davolash muddatini qisqartiradi. Bu usul kasallikning klinik belgilarini tezroq yo'qotishga, qaytalanishining oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Teknaol va otozol preparatlari bilan birgalikda qo'llaniladigan lazer terapiyasi kam invaziv, nisbatan arzon va samarali davolash usuli hisoblanadi hamda uni barcha otorinolaringologiya muassasalarida qo'llash mumkin.

REFERENCES | ЧОККИ | ИҚТИБОСЛАР:

1. Khismatullina, Z.R., KORESHKOVA, K.M., ABDURASHITOV, T.R. OTOMYCOSIS: CLINIC, DIAGNOSTICS, TREATMENT (LITERATURE REVIEW) // 2020 doi:10.24412/1999-6780-2020-3-9-14 (In Russ.)
2. Krukov AI, Kunel'skaya NL, Kunel'skaia VIa, Ivoilov AIu, Turovskii AB, Shadrin GB, Machulin AI. Otomycosis: the modern view of etiology and management. Russian Bulletin of Otorhinolaryngology. 2018;83(1):48-51 <https://doi.org/10.17116/otorino201883148-51>(In Russ.)
3. Carney A. S. Otitis externa and otomycosis //Paediatrics, The Ear, Skull Base. – CRC Press, 2018. – C. 953-958.
4. Debta P. et al. Otomycosis: A Comprehensive Review //Indian Journal of Forensic Medicine & Toxicology. – 2020. – T. 14. – №. 4. – C. 8429.

5. Kiakojori K. et al. Assessment of response to treatment in patients with otomycosis //Iranian Journal of Otorhinolaryngology. – 2018. – Т. 30. – №. 96. – С. 41.
6. Opperman C. J., Copelyn J. Aspergillus niger otomycosis in a child with chronic otitis externa //Southern African Journal of Infectious Diseases. – 2020. – Т. 35. – №. 1. – С. 1-3.
7. Prakash S. B., Leelatejaswini R. M., Deekshita V. A clinical and microbial study of otomycosis: an original study //Journal of Evolution of Medical and Dental Sciences. – 2015. – Т. 4. – №. 71. – С. 12376-12385.
8. Amonov M.X., Vokhidov U.N. Specificity of the clinic of the disease in children with otomycosis. Eurasian Journal of Otorhinolaryngology - Head and Neck Surgery. 2022;1(1):6–11. <https://doi.org/10.57231/j.ejohns.2022.1.1.001>
9. Imangaliev E.E., Jandaev S.J., Kasenova D.S., Abdrakhmanova D.K. Current Approaches to the Diagnosis and Treatment of Otomycosis // Astana Medical Journal. 2023. No. 2. Vol. 116. pp. 12–17 <https://doi.org/10.54500/2790-1203-2023-2-116-12-17> (In Russ.)
10. Kiakojori K., Jamnani N. B., Khafri S., Omran S. M. Assessment of response to treatment in patients with otomycosis. Iranian Journal of Otorhinolaryngology, 2018; 30(96):41.
11. Imamov O. S., Rizaev J. A., Toxtayev G. S. A SURVEY OF BULLOUS DISEASES CLINICOEPIDEMOLOGICAL CHARACTERISTICS //Central Asian Journal of Medicine. – 2025. – №. 2. – С. 65-70.
12. Alimdjanovich R. J., Ugli T. N. K. CLINICAL AND ANATOMICAL FEATURES OF NASAL DEFORMITY IN PATIENTS WITH UNILATERAL CLEFT LIP AND PALATE AFTER CHEILOPLASTY //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2023. – Т. 5. – №. 08. – С. 13-22.
13. Фаттаева Д., Ризаев Ж., Рахимова Д. ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ ХРОНИЧЕСКОГО ГАЙМОРИТА ПРИ БРОНХО-ЛЕГОЧНОЙ ПАТОЛОГИИ //SCIENTIFIC IDEAS OF YOUNG SCIENTISTS. – 2021. – С. 28.
14. Polatova Djamila , Madaminov Ahmad, Raximov Nodir . Significance of expression PD-L1 and p53 proteins in human papillomavirus-associated oropharyngeal squamous cell carcinoma// Journal of Biomedicine and Practice. 2022, vol . 7, issue 4, pp . 144-151
15. Abdurakhmonov F. R., Rakhimov N. M., Abdurakhmonova F. F. Special choices for the treatment of complications of the soft tissue injuries of the facial region //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2023. – Т. 5. – №. 10. – С. 24-26.

БИОМЕДИЦИНА ВА АМАЛИЁТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ БИОМЕДИЦИНЫ И ПРАКТИКИ

JOURNAL OF BIOMEDICINE AND PRACTICE

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000